

MURAKKAB NUQSONLARNI BARTARAF ETISHNING ENG SAMARALI USULI

Abduxoshimova Zuxra Davronjon qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Special pedagogy fakulteti talabasi
Abdukhoshimovazukhra@gmail.com
+998978826362

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistondagi mujassam nuqsonli bolalarni hayoti haqida fikrlar boradi. Murakkab nuqson o'zi nima? Murakkab nuqson turlari, kelib chiqish sabablari qanday? Murakkab nuqsonli bolalarning tibbiy-pedagogik-psixologik va ijtimoiy adaptatsiya jarayoni. Alovida ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalar huquqlari. Murakkab nuqsonli bolalar ta'limi hamda 2023-2024-o'quv dasturi qanday? Murakkab nuqsonlarni korreksiyalash qay tarzda olib borilayotganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Murakkab nuqson, nuqsonlarning turlari, aqliy zaif, zaif eshituvchi, zaif ko'ruchchi, BSF tushunchalar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается жизнь детей с ограниченными физическими возможностями в Узбекистане. Что такое сложный дефект? Каковы виды сложных дефектов, их причины? Процесс медико-педагогической-психологической и социальной адаптации детей со сложными нарушениями здоровья. Права детей с особыми потребностями. Каково образование детей со сложными нарушениями и учебная программа на 2023-2024 годы? Объясняется, как осуществляется исправление сложных дефектов.

Ключевые слова: Комплексная инвалидность, виды инвалидности, умственно отсталые, нарушения слуха, слабовидящие, понятия ЧФ.

ANNOTATION

This article discusses the life of children with physical disabilities in Uzbekistan. What is a complex defect? What are the types of complex defects, their causes? Process of medical-pedagogical-psychological and social adaptation of children with complex disabilities. Rights of children with special needs. What is the education of children with complex disabilities and the 2023-2024 curriculum? It is explained how the correction of complex defects is carried out.

Key words: Complex disability, types of disabilities, mentally retarded, hearing impaired, visually impaired, concepts of BSF.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugun dunyoda 1 milliarddan ortiq odam nogironlikdan aziyat chekadi. Bu dunyo aholisining, taxminan, 15 foizini tashkil etadi. O‘zbekistonda ham bunday toifadagi odamlar soni kam emas. Nogironlarga qulay sharoit yaratish, ularga ta’lim berish, munosib ish o‘rnlari bilan ta’minlash masalasi nihoyatda dolzarbdir.

Avvalo murakkab nuqson nimaligi ustida to`htalib o`tsak. Murakkab nuqson bu - ikki va undan ortiq nuqsonning bitta shaxsda mavjudligi. Masalan: ko`rlik hamda bir vaqtning o`zida karlikning birga kelishi, harakat-tayanch a’zolarida hamda aqliy tomondan nuqsonning birgalikda kelishi. Murakkab nuqsonlar turlicha bo`lishi mumkin. Nuqsonlar turlari: Sensor (eshitish, ko`rish), aqliy (aqli zaiflik, ruhiy rivojlanishning sustligi), jismoniy (harakat-tayanch a’zolarida uchraydigan nuqsonlar), nutqiy (alaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish), somatik (oshqozondagi yaralar, yurak-qon tomir kasalliklari). Sensor tizimi-asab tizimining idrok uchun mas’ul bo’lgan qismi. Bu uning idrokini rivojlantirish, obyektlarning tashqi xususiyatlari, ularning shakli, rangi, tami, xidi shuningdek kattaligi holatini shakllantirish. Bolalardagi intelektual nogironlik (aqliy zaiflik) – asab tizimining cheklangan faoliyati fonida intelektual qobiliyatlarini rivojlantirishni cheklash bilan tavsiflangan bolaning aql-idrokining maxsus xolati. Bu asab tizimining funksional buzilishi deb aytishimiz mumkin. Jismoniy nuqsonlar- bolalarning jismoniy rivojlanishi baholanadigan asosiy belgilar: bo’yi, tana vazni, boshning kattaligi, ko’krak aylanasi. Nuqt nuqsonlari- bola miyasi va nutqning rivojlanishi o’rtasida yaqin bog’liqlik mavjudligi. Miyadagi kamchiliklar nutq nuqsonlariga olib keladi. Psixik nuqsonlar- aqliy zaiflik, rivojlanishning kechikishi, erta bolalik davrida autizm, diqqat yetishmasligi. Somatik anomaliyalar- somatik kasalliklar ruhiy patologiyalardan farqli o’laroq, tana kasalliklari deb ataladi. Ushbu tizimga ichki tizimlar va organlarning noto’g’ri ishlashi yoki insonning aqliy faoliyatiga taaluqli bo’lmagan tashqi ta’sirlardan kelib chiqadigan patologiyalar kiradi.

Rivojlanishida murakkab ko‘p nuqsonli bolalarning ijtimoiy-maishiy moslashuvi ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) – individni ijtimoiy muhit sharoitlariga doimiy, faol moslashuvi, hamda bu jarayon natijasi. Garchi ijtimoiy adaptatsiya muntazam kechsada, bu jarayon odatda vaqt – vaqt bilan individ va uni atrofidagilar hayotida va faoliyatida eng ahamiyatli o‘zgartirishlar bilan bog‘lanadi. Ijtimoiy adaptatsiyadagi markaziy aspekt-individning ijtimoiy rolini qabul qilishi hisoblanadi. Ijtimoiy adaptatsiyada kompleks reabilitatsiyalar imkon qadar yuqori darajadagi tayyorgarlikni ta’minlaydi. U taqdim etilgan uchta ko‘rinishdagi asosiy bosqichlarda bo’lishi mumkin: adaptatsion – diagnostik, korreksion va integratsion, ularning har biri o‘ziga xos vazifalarni amalga oshiradi. Birinchi bosqichda bola shaxsining rivojlanishiga tashxis qo‘yiladi, va u bilan reabilitatsion imkoniyati va eng maqbul korreksion – tarbiyaviy ishlari aniqlanadi. Ikkinci bosqichda bola bilan reabilitatsiya tadbirlari

tashkil etiladi va o'tkaziladi, hamda ota-onasi yoki tarbiyachi reabilitatsion texnologiyalarga o'qitiladi. Uchinchi bosqichda ijtimoiy jamiyatda bolani integratsiyalash yollari aniqlanadi va ma'lum davr orasida jami kompleks reabilitatsiya olib boriladi.

Alohida yordamga muhtoj bolani kompleks reabilitatsiyalash quyidagi ko'rinishda bo'ladi: "Tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy – iqtisodiy qabul qilingan tizim va jarayon, bartaraf etish, korreksiyalashga yo'naltirilgan yoki to'liq kompensatsiya". Uning maqsadi "Alohida yordamga muhtoj bolaning ijtimoiy mavqeini, moddiy jihatdan mustaqilligini va uning ijtimoiy moslashishini reabilitatsiyalash". Maxsus o'quv muassasalarida yoki internat turidagi muassasalarda tibbiy – ijtimoiy reabilitatsiya ishlari alohida yordamga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayonini tashkil qilishda, ularning ijtimoiy-maishiy moslashuvini amalga oshirish jarayonida, o'ziga xos tomonlarini aniqlashda amalga oshiriladi. Ijtimoiy reabilitatsiya orqali bola shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi. Jarayon davomida rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bola bilan vujudga keladigan g'oyat katta miqdordagi ichki va tashqi omillar bilan bog'liq bir qator muammolar bola rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni samarali boshlash uchun ularning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, ijobiy va salbiy tomonlarini, ta'sir etish natijalarini oldindan ko'rish va korreksiyalashni o'z vaqtida boshlash kerak. V.A.Slasteninning fikriga ko'ra, ijtimoiylashvi (sotsializatsiya) jarayonida inson shaxsi tiklanadi, u ijtimoiy funksiyalarni bajarish qobiliyatini egallaydi, ya'ni uni rivojlanishini, o'z mavqeini belgilab olishi va o'zi amalga oshirishini nazarda tutadi. Bu vazifalar izchillik bilan, aniq maqsadga qarab hal qilinadi. Bu aniq maqsadga qarab uyushgan ijtimoiy jarayonni boshqarish - ta'lim deb nomlanadi. Ta'lim tushunchasi ("qiyofa" so'zidan) shaxsning yagona jismoniy va ma'anaviy jarayoni tushuniladi, sotsializatsiya jarayoni ayrim benuqson qiyofalar, tarixiy bog'liqlikda, jamoat ongida ortiqroq yoki kamroq ijtimoiy aniq o'lchamlarda tushuniladi (masalan, o'zaro mos rivojlangan shaxs va boshqalar). Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash jarayonida korreksion ishlarning ahamiyati katta. Bu ishlar qanchalik sifatli amalga oshirilsa, bolaning shunchalik bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi oson kechadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi uzluksiz ta'lim tizimidagi maktabgacha va maktab yoshdagi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan turli toifadagi bolalar bilan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda ta'lim tarbiya jarayoni korreksion yo'nalishda amalga oshirilmoqda. O'qituvchi, defektolog va tarbiyachilar har bir mashg'ulotda korreksion ishlarini turli usullar bilan amalga oshirishga harakat qiladilar. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza etish vazirligi tasarrufidagi internat turidagi bolalar "Muruvvat" uylarida murakkab ko'p nuqsonli bolalar bilan korreksion rivojlantiruvchi ishlarning olib

borilishi muhim ahamiyatga ega. Bolalar “Muruvvat” uyida rivojlanishida murakkab ko‘p nuqsonli bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan tizim asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sishga qodir, jismoniy va ma’naviy yetuk avlodni kamolotga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarda millatlar va elatlar, aholining ijtimoiy qatlamlarini huquqiy muhofaza qilish uchun mustahkam zamin yaratilib kelinmoqda. Mamlakatimizda bolalarga har tomonlama g‘amxo‘rlik qilish, onalik va bolalikni muhofaza etish masalalari davlat siyosati darajasida ko‘rilmoxda. Jumladan: O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lishi, “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi va “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi yoshlarimizga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yorqin namunasidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning zamirida eng avvalo kelajak avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, hech kimdan kam bo‘lmay dunyo arenalarini zabit etishga qodir farzandlar bo‘lib yetishishi muhimdir. Ayniqsa, yetim va ota-onas qaramog‘isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida murakkab ko‘p nuqsonli bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta’minalash, turmush faoliyatidagi chekshanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviylik va uzlucksizligini ta’minalash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bolalik bosqichida inson psixologogik-pedagogik jihatdan kuchli ta’sirlanadi. O‘sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarni oldini olishga yordam beradi. Bularning hammasi bolani mustaqil, hech kimga qaram bo‘lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda O‘zbekistonning turli mintaqalarida – Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona vodiysida uch yoshgacha bo‘lgan bolalarning salomatligi va rivojlanishida majmuaviy baholash o‘tkazishdi. Monitoring Butunjahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining yangi standartlari asosida amalga oshirishdi. Bu tadqiqotlarning xulosalari asosida aniq tavsiyalar ishlab chiqishdi. Jumladan, erta tashxis va barvaqt aralashuv muammolari hal etishdi. Toshkent shahridagi ikkita oilaviy poliklinikada “Barvaqt aralashuv xizmati” ish boshladi.

“Barvaqt aralashuv xizmatini yaratish to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq alohida ehtiyojli bolalarga barvaqt majmuaviy korreksion psixologik yordamning uslubiy va tashkiliy asoslari ishlab chiqishdi. Bola rivojlanishidagi buzilishlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni, zaruriyat bo‘lganida, bolalar nogironligi va rivojlanishdagi ikkilamchi buzilishlarni oldini olish uchun chuqur tibbiy va psixologik-pedagogik tekshiruvga yo‘llashda yordamlashadi. Bola rivojlanishidagi kamchilik qancha erta aniqlansa, uni hal qilish shunchalik oson kechadi. Internat turidagi bolalar “Muruvvat” uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik-pedagogik kuzatib borish yuzasidan ishlab chiqilgan va amalda qo‘llanilayotgan shakllari ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanishning yana bir namunasi hisoblanadi. Bu toifadagi bolalar uchun Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi xodimlari individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlar, abilitatsiya va reabilitatsiya dasturlarini tuzishdi. Endilikda internat turidagi muassasalarda bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy-maishiy hamda kasbiy tayyorgarlikni amalga oshiruvchi ishlar maxsus ishlab chiqilgan ta’lim-tarbiya jarayoni tizimi bo‘yicha olib borilmoqda. Murakkab nuqsonli bolalar ta’lim oluvchi sinflarning 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasiga tushuntirish xati

I. Asosiy tamoyillar 2023-2024-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablari singari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim muassasalarida ham zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi:kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish; kommunikativlik – muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish; kreativ fikrlash – o‘z maqsadiga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish; tanqidiy fikrlash – o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish.

II. O‘quv soatlarining taqsimlanishi Tayanch o‘quv rejada “Ona tili va adabiyot” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:1-9-sinflarda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani haftasiga 6 soatdan o‘qitiladi. Bunda, haftasiga 3 soatdan “Ona tili” va “O‘qish” fanlari o‘qitiladi;1-9-sinflarda “Nutq o‘stirish” fani haftasiga 2 soat o‘qitiladi.“Texnologiya” fani 1-9-sinflarda haftasiga 3 soatdan o‘qitiladi. Ushbu soatlar“Qo‘l mehnati” o‘quv dasturi asosida yalpi tarzda tashkil etiladi.“Korreksion mashg‘ulotlar” quyidagi turlarga bo‘linadi:Korreksion mashg‘ulotlarga ajratilgan soatlar muassasalarning yo‘nalishidan kelib chiqib, o‘quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini tuzatishga qaratiladi va jurnaldan alohida sahifa ajratiladi.Korreksion mashg‘ulot yakka, guruhli va yalpi tarzda, logoped yoki defektolog pedagoglar tomonidan olib boriladi. Mazkur mashg‘ulot alohida jadvalda qayd etiladi va maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi. “Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish” korreksion mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini tuzatishga

qaratiladi. Chorak baholar chiqarilmaydi. Bunda yakka mashg‘ulot uchun umumiy jurnalda ajratilgan sahifada mashg‘ulotlar sanasi, mavzusi belgilanadi va o‘quvchining natijalari fonetik kundalikda yoritilib boriladi. Mashg‘ulot natijalari monitoring qilib borish orqali o‘qituvchi faoliyatiga baho beriladi. Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish korreksion mashg‘ulot bo‘yicha yillik ish reja tuziladi. Talaffuz va nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha har bir o‘quvchining talaffuzi va nutqidagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda individual reja tuziladi. Mashg‘ulotga kelmagan o‘quvchi o‘rniga boshqa o‘quvchi olinib, fonetik kundaligiga yoziladi. Mashg‘ulotlarni qoldirgan o‘quvchilar maktabga kelgan kundan boshlab, mashg‘ulotlarga jalb etiladi va ular uchun utilgan fonetik kundalikda ham sanalar o‘zgarsa-da, biroq, mashg‘ulotlarning soni yillik rejaga mos tarzda bajariladi. Eshitish idrokini rivojlantirish talaffuzni shakllantirish 1-9-sinflarda yakka mashg‘ulotlarga o‘quvchilarni darsdan tashqari vaqtarda kunning ikkinchi yarmida jalb etiladi. “Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish” mashg‘ulotlari uchun 1-5-sinflarda haftasiga 12 soatdan yakka tartibda olib boriladi. 6-9-sinfda kichik guruhlarda olib boriladi. O‘quv yilining yarmida o‘quvchilarning eshitish idroki, talaffuz va nutqiy ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasi maxsus guruh (eshitish kabineti mudiri, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, metod birlashma raisi, sinf rahbari, yakka mashg‘ulot o‘qituvchisi) tomonidan o‘rganiladi va natijaga qarab, o‘zgarish kuzatilmagan sinflarda o‘qituvchilar tajribali mutaxassislar bilan almashtirilishi tavsiya etiladi. “Musiqa va ritmika” mashg‘ulotlari maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan 2 nafar o‘qituvchi: surdopedagog va musiqa rahbari tomonidan birgalikda o‘tkaziladi. Mazkur xodimlarga ushbu mashg‘ulotni o‘tkazgani uchun ish haqi to‘la saqlangan holda to‘lanadi. Musiqa va ritmika mashg‘ulotlari 1-6-sinflarda haftasiga 2 soatdan musiqa o‘qituvchisi va defektolog o‘qituvchi rahbarligida yalpi tarzda olib boriladi. Musiqa va ritmika mashg‘ulotlari uchun alohida jadval tuzilib, maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. “Nutqiy muloqot” korreksion dars 1-9-sinflarda haftasiga 2 soatdan o‘qitiladi. Ushbu korreksion dars o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda, lug‘at boyligini oshiradi, og‘zaki, yozma, daktil va imo-ishorali nutqiy vositalar yordamida samarali muloqotga o‘rgatadi. Mazkur darsni daktil va imo-ishora nutqni to‘liq o‘zlashtirgan tajribali, maxsus pedagogikani tamomlagan mutaxassislar olib boradi. Korreksion mashg‘ulotlar yakka, guruhli va yalpi tarzda surdopedagog, defektolog (bakalavr) yoki surdopedagogika yo‘nalishi bo‘yicha qayta tayyorlovdan o‘tgan oligofrenopedagoglar tomonidan olib boriladi. Mazkur mashg‘ulotlar alohida jadvalda qayd etiladi va maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi. “Ijtimoiy maishiy hayotga yo‘naltirish” korreksion dars 1-9-sinflarda haftasiga 2 soatdan o‘qitiladi. Ushbu korreksion dars o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda, lug‘at boyligini oshiradi, og‘zaki, yozma, daktil va imo-ishora nutqiy vositalar yordamida samarali muloqotga o‘rgatadi. Murakkab nuqsonli bolalar bilan mashg‘ulotning borishini

o‘qituvchi belgilaydi, ya’ni o‘yin faoliyatiga asoslangan sensor rivojlantiruvchi ish turlaridan foydalaniladi. Ushbu o‘quvchilarining natijalari sinfning umumiy ko‘rsatkichlarida inobatga olinmaydi. Yuqorida qayd etilgan o‘quv predmetlari, korreksion mashg‘ulotlarning o‘qitilishi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tomonidan tavsiya etilgan tegishli o‘quv dasturlari va metodik tavsiyalar asosida olib boriladi va monitoring qilinadi.

Xulosa o’rinida shuni aytib o’tish kerak, yuqorida aytib o’tilganidek nuqsonlarning turlari kelib chiqish sabablari turlicha, ba’zi oilalarni kuzatib, farzandi nuqsonli ekanligidan uyalib uni hech kimga ko’rsatishmaydi. Faqat uni uyda olib o’tirishadi. Bundan nima naf, axir haqiqat ertami kechmi yuzaga chiqadiku, yana ota-onalar bu qilgan ishim to’g’ri deb bilishadi. Aslida bu ish bilan farzandiga dushmanlik qilayotganligini anglashmaydi ham. Vaholanki, birlamchi nuqson davolanmas ekan, ikkilamchi nuqson yuzaga keladi. Aziz ota-onalar bilaman siz ham maqolani o’qimoqdasiz, sizdan ushbu maqoladan olgan bilim va ko’nikmalingizni boshqa insonlarga ham ulashishingizni so’rayman, zero jamiyatimizda sog’lom bolalarimiz ko’paysin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. O’quv qo’llanma. T.: Fan va texnologiya, 2018
2. М.В. Жигорева ,Щети с комплексными нарушениями в развитии: педагогическая помощь -Москва: Академия, 2006
3. <http://kun.uz/uz>